



MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19402683>

Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi

O'zbekiston, Jizzax viloyati, mustaqil tadqiqotchi.

Musurmonova Mariya Burxonovna

O'zbekiston, Jizzax viloyati, Pedagogik mahorat markazi.

Annotatsiya: *maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hikoya, she'r va ertaklar bolaning tasavvuri, nutqi va ijodkorligini rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri ekanligi, bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish, kreativlikni rivojlantirish usullari kabi masalalar borasida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *jarayonlar, g'ayri tabiiy, ixtiro, intiluvchanlik, yaratish, kreativlik, nutq o'stirish, tafakkur, fantaziya.*

Аннотация: *В статье рассматривается, что рассказы, стихи и сказки в дошкольных образовательных организациях являются одними из наиболее эффективных средств развития воображения, речи и творческих способностей ребёнка. Освещаются вопросы формирования креативного мышления у детей, а также методы развития креативности.*

Ключевые слова: *процессы, необычное, изобретение, стремление, творчество, креативность, развитие речи, мышление, фантазия.*

Abstract: *The article discusses that stories, poems, and fairy tales in preschool educational institutions are among the most effective tools for developing children's imagination, speech, and creativity. It examines issues related to the development of creative thinking in children as well as methods for fostering creativity.*

Keywords: *processes, unusual, invention, aspiration, creation, creativity, speech development, thinking, imagination.*

KIRISH

Ta'lim-tarbiya jarayoniga bolani kreativ fikrlashga undaydigan strategiya va texnologiyalarni olib kirish, fikrlashga undovchi ijodiy pedagogik muhitni qaror toptirish, tarbiyachi va bolalar orasida ishchan muloqot, hamkorlik vaziyatini

vujudga keltirish maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kreativ fikrlashni shakllanishi uchun nihoyatda zarurdir.

Pedagogika, psixologiya, falsafa, sotsiologiyaga oid ilmiy manbalar, davlat talablari, o'quv adabiyotlari, dasturlarning tahlili hamda tadqiqot



doirasidagi mavjud pedagogik amaliyotni o'rganish natijalari ham maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarining badiiy adabiyot vositasida kreativ fikrlash darajalarini shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik tizimni aniqlash, uni nazariy jihatdan asoslash va ta'lim amaliyotiga qo'llashga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar atrofni o'rab turgan muhitdan aynan o'zini qiziqtirgan hayotiy malakani oladi. Muhit qanchalik toza va musaffo bo'lsa, bolaning inson sifatida shakllanishida shunday toza va musaffo ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi bolalar o'zining kundalik hayotida turli-tuman o'zgarishlarga duch keladilar. Dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlar bolalarda muttasil o'qishga intilishni tarbiyalash, o'zgarayotgan dunyoda zarur bo'ladigan qobiliyatlarni rivojlantirishni talab qiladi. Agar bola muntazam tarzda foydali va qiziqarli ish bilan band bo'lsa, bu tarbiyachining yutug'idir. Faol, tashabbuskor, ijodkor bola maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilada kamol topadi. Ularning nutqini o'stirish, kreativ fikrlashga yo'naltirishda turli usullar, badiiy adabiyot, texnologiyalar, o'yin vositalaridan foydalanish kutilgan samaraga erishishda yaqindan yordam beradi. Kreativlik o'zi nima?

Shaxsning asosiy kreativlik qobiliyati, uning intellektual-ijodiy qobiliyati hisoblanadi.

E.P.Torrens fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik.

Amerikalik olim D. Veksler "Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va xodisalar mohiyatidagi o'ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi" - degan ta'rifni beradi.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yakkol aks etishi mumkin.

Asosiy qism

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hikoya, she'r va ertak bolaning tasavvuri, nutqi va ijodkorligini rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Bu borada ayniqsa, mashg'ulotlarni to'g'ri, sifatli va qiziqarli tashkil etishda tarbiyachidan yuksak mahorat talab qilinadi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishni iloji boricha ertaroq boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda asosan maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi turli jarayonlar (mashg'ulotlar, sayrlar, o'yinlar, mehnat faoliyati) muhim rol o'ynaydi, sababi,



bolalarda bilimga intilish yaxshi rivojlanadi, ular har xil hodisalar, narsalarga, yaratuvchanlikka qiziqadi. Yoshidan qat'iy nazar bolalarning yaratuvchanliklarini doimo qo'llab-quvvatlash kerak. Ko'pchilik ota-onalar bolalarning mahoratini, uquvini qanday qilib rivojlantirishga qiziqishsa, ayrim ota-onalar asosan ta'limga, mantiqiy fikrlashga e'tibor qaratadilar. Lekin odatda, yangiliklarni g'ayri tabiiy fikrlaydigan odamlar yaratadi. Odam yoshi qancha katta bo'lib boraversa ularda shuncha kreativlikni rivojlantirish ham qiyin (mushkul) bo'ladi.

Ixtirochi odam eng murakkab holatdan chiqish yo'lini topadi, chunki u nostandart fikrlay oladi. Bu ko'nikmalar keyinchalik ham har-xil masalalarni yechishda kerak bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ixtiro etishga qiziqish bildirsa ularni albatta rag'batlantirish va fikrlashni quyidagicha rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

1. Bolalarda fantaziyani rivojlantirishni rag'batlantirish. "Odamchani" cho'plardan va qo'l ostidagi bor materiallardan yaratish va ular nimaga o'xshashini so'rash.

2. O'qish xursandchilik ekanligini ko'rsatish. Bu o'yin shaklida o'tkaziladi. Bolalar juda qiziquvchan, shuning uchun ularning qiziqishlarini rag'batlantirish oson.

3. Faoliyatni xilma-xil qilish, fikrlashni, tafakkurni stimullaydigan yangi noodatiy masalalarni taklif etish.

4. Yutuqlarini maqtash. Bola nimani chizgan yoki yaratgan narsasi umuman tushunarsiz bo'lsa ham. Chunki, qo'llab-quvvatlash bolaning keyingi faoliyatiga bo'lgan qiziqishni ta'minlaydi.

5. Mustaqillikni taqdirlash. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ertak qahramonlari syujetini o'zlari o'ylab topsin, har xil narsalarni yasasin.

6. Har xil urf –odatlar bilan tanishtirish. Tarbiyachining vazifasi-rivojlanish muhitini yaratish, ko'proq taassurotlarni berish. Ularning ijodiy faoliyatiga aralashmasdan baho berish va asta-sekin yo'naltirish.

Kreativlikni rivojlantirish shartlari.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda qobiliyatini to'g'ri rivojlantirish uchun quyidagi shartlarga amal qilish muhim:

- to'g'ri jismoniy rivojlanish, intiluvchanlik, tashqi muhit bilan qiziquvchanlik.

- qiziquvchanlikni rag'batlantirish: Bolalar "Nimaga", "Bu nima", "Nima uchun" degan savollarni juda ko'p beradi. Ularning bergan savollarini e'tiborsiz qoldirmaslik, har-xil hodisalarni sekin-asta, qiziqarli qilib tushuntirish .

- iloji boricha rivojlantirishni ertaroq boshlash.

- maktabgacha ta'lim tashkilotida yaxshi, mos muhit yaratish.

- kreativlik harakatini intellektual mashg'ulotlarda o'yin shaklida qo'llash.

- materiallarni va harakat usulini tanlashda bolaga erkinlik berish.

Bolani qanday qilib kreativlikka o'rgatish mumkin.



Tarbiyachi soʻzni aytadi, bola soʻz nimaga bogʻliqligini aytadi. Bunda obrazli fikrlash va tafakkur rivojlanadi.

Aqliy hujum.

Masalan: Bola adashib qoldi. Tasavvur qiling, bu vaziyatda nima qilish kerak? (yaqin atrofidagi ichki ishlar, milliy gvardiya xodimlaridan yordam soʻrash)

Kreativlikka oid oʻyin.

Bolalarga qogʻozdan bir nechta shakllar qirgʻish tavsiya etiladi.

Ularga istalgan narsaning shaklini yasash taklif etiladi.

Masalan: Bino, gullar, hayvon, texnika, kitob, mevalar. Bola oʻzining mustaqilligini namoyish etsin. Bolaga yasagan narsalaridan birorta hikoya yoki sheʼr toʻqish va nom berish taklif etiladi.

Tanlov.

Bolaning oldiga bir nechta predmetlar, narsalar qoʻyiladi. Ulardan qanday noodatiy foydalanishni oʻylab topish taklif etiladi. Bunda albatta bolaning topqirligi uchun maqtash lozim.

Yaratishni oʻrgatish.

Bunda har xil konstruktorlardan foydalanishga toʻgʻri keladi. Bolaga oʻzi tanlashga imkoniyat berib, bu elementlardan nima yasash mumkinligini soʻrash kerak. Taklif etilgan topshiriqlar shunday boʻlishi kerakki, bola bu narsalarni qiynalmasdan yecha oladigan va ular juda ham murakkab boʻlmasdan uning imkoniyatlariga toʻgʻri keladigan boʻlishi lozim. Shu bois ham, bolaning yangilik yaratishga qiziqishini saqlab qolish juda muhim.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida hikoya, sheʼr va ertaklar bolaning tasavvuri, nutqi va ijodkorligini rivojlantirishda eng samarali vositalardan hisoblanadi. Quyida ular orqali kreativlikni rivojlantirish usullari keltirilgan:

Hikoya orqali kreativlikni rivojlantirish.

“Davomini oʻylab top” usuli.

Tarbiyachi hikoyani yarmigacha aytib, qolgan qismini bolalardan oʻylab topishni soʻraydi. Bu usul fantaziya va mustaqil fikrlashni kuchaytiradi.

Yangi qahramon qoʻshish.

Bolalar hikoyaga yangi obraz kiritadi. Bunda moslashuvchan fikrlash va yangicha gʻoya yaratish qobiliyati shakllanadi.

Sheʼr orqali kreativlikni rivojlantirish.

Qofiya topish oʻyini.

Tarbiyachi bir soʻz aytadi, bolalar qofiyadosh soʻz topadi. Bunda bolalarning lugʻat boyligi oshadi va nutqi rivojlanadi.

Sheʼrni davom ettirish.

Birinchi misra beriladi, qolganini bolalar toʻldiradi. Mantiqiy va ijodiy fikrlash kuchayadi.

Ertak orqali kreativlikni rivojlantirish.

Ertakni oʻzgartirish.

Masalan, qahramonning xarakterini yoki voqea rivojini oʻzgartirish.

Bola sabab-oqibat bogʻlanishini tushunadi va unda ijodiy tafakkur rivojlanadi.

Ertak yaratish.



“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan...” jumlasidan boshlab, bolalar bilan jamoaviy ertak tuzish. Bu orqali bolalarda jamoada ishlash va fantaziya kuchayadi.

XULOSA

Hikoya, she‘r va ertak—bolalar kreativligini rivojlantirishning tabiiy va samarali usulidir. Bular bolaning tasavvuri, nutqi, hissiyoti va mustaqil

fikrlashini bir vaqtning o‘zida shakllantiradi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, tarbiyachilar bolalarni kreativ fikrlashga o‘rgatish orqali ularga juda katta imkoniyatlar yaratib berishi mumkin. Bu esa keyinchalik bolalarning nafaqat ta‘lim jarayonida, balki hayotining turli sohalarida asqotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Torrance, E. P. (1968), «A longitudinal examination of the fourth-grade slump in creativity», *Gifted Child Quarterly*, 12, 195-199.
2. Veksler, D. (1976), *Structure of intellect*, California. 138142.